HSR London International Conference on Multidisciplinary Academic Research
(HSR-ICMAR) 2026
https://houghtonstreetreview.com/index.php/conference

O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA OILA PSIXOLOGIYASI: SAID AHMAD VA O‘TKIR HOSHIMOV HIKOYALARI MISOLIDA

I.B.Habibullayev
FarDU tadqiqotchisi,
S.A.Habibullayeva
FarDU katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya.
Mazkur maqolada Said Ahmad va O‘tkir Hoshimov hikoyalarida oila psixologiyasining badiiy talqini tadqiq etiladi. Adiblar ijodida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik mohiyati, ota-ona va farzand, er-xotin hamda boshqa oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarning badiiy ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaviy konfliktlar, ishonch va sadoqat masalalari, shuningdek, oiladagi ruhiy muhitning shaxs kamolotiga ta’siri adabiy-psixologik yondashuv asosida yoritilgan. Xususan, Said Ahmadning “Sarob” hamda O‘tkir Hoshimovning “Nimadir bo‘ldi” hikoyalari misolida oilaviy qadriyatlarning buzilishi, ma’naviy inqiroz, shaxsiy manfaat va ruhiy ziddiyatlarning badiiy aks ettirilishi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari o‘zbek nasrida oila instituti murakkab ijtimoiy-psixologik tizim sifatida talqin etilganligini hamda oilaviy munosabatlarning milliy mentalitet va axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: oila psixologiyasi, oilaviy munosabatlar, badiiy talqin, milliy mentalitet, psixologik konflikt, Said Ahmad, O‘tkir Hoshimov, oilaviy qadriyatlar, personaj psixologiyasi, o‘zbek nasri.

O‘zbek adabiyotshunosligida oila psixologiyasi masalasi Said Ahmad va O‘tkir Hoshimov ijodining konseptual asoslaridan birini tashkil etadi. Mazkur adiblarning hikoyalarida oila ichidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar, mikromuhit barqarorligi, o‘zaro anglashuv va emotsional xotirjamlik kabi masalalar badiiy tadqiq etilgan.

Said Ahmad asarlarida oilaviy munosabatlar dinamikasi, xususan, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi psixologik aloqalar tadqiqi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Muallif hikoyalari, ko‘pincha, muammoli va o‘zgaruvchan sharoitdagi oilalar modeliga asoslangan bo‘lib, unda oilaviy konfliktlarning yuzaga kelishi va ularning konstruktiv yechimlari badiiy aks ettirilgan. Adib oila a’zolari o‘rtasidagi ishonch, hurmat, xiyonat va deterministik qarorlar qabul qilish jarayonlarini psixologik tahlil obyekti sifatida oladi. Xususan, “Sarob” hikoyasida yozuvchi oilaviy qadriyatlar tizimidagi eng og‘ir holat – ota-ona va farzand o‘rtasidagi ma’naviy aloqalarning uzilishi hamda xiyonat fenomenini axloqiy va psixologik jihatdan keskin qoralaydi.

“Dunyoning ishlari xo‘p qiziq-da, ota – sotqin, bolasi – chin vatanparvar!

Kimsanboyni ikki marta tergovga chaqirib, otasi bilan yuzlashtirdilar. Olimjon domla bu ishlarda o‘g‘lining ham qo‘li borligini bilmasdi. Yuzma-yuz paytida Kimsanboy aytgan gaplarni eshitib, yoqasini ushladi. Tergovchining: “Shu gaplar rostmi? Tasdiqlaysizmi?” degan so‘rog‘iga javob bermadi. Peshonasiga shapillatib urib: “E-e, attang, attang! – deya o‘g‘lining betiga qarab: – Iloyo, juvonmarg bo‘l! Umring xor-zorlikda o‘tsin! – deb yuziga fotiha tortdi”[1].

Hikoyada Olimjon domla obrazi orqali adolatsizlik qurboniga aylangan, ma’naviy pok shaxsning fojiasi aks etadi. Qahramonning o‘z farzandi tomonidan siyosiy ayblovlar bilan qatag‘on qilinishi asarning kulminatsion nuqtasini tashkil etadi. Olimjon domlaning o‘ziga nisbatan e’lon qilingan asossiz ayblovlarni eshitgandagi holati – “yoqasini ushlashi”, “peshonasiga urishi” kabi xatti-harakatlar orqali personajning psixofiziologik reaksiyalari va chuqur affektiv zarbasi badiiy ifodalangan. Mazkur tasvirlar personajning ruhiy shok holatiga tushganidan dalolat beradi.

Kimsanboy obrazi esa oilaviy iyerarxiya va axloqiy me’yorlarning yemirilishi, ya’ni farzandlik sadoqatining inqirozi sifatida talqin qilinadi. Muallif ushbu personaj orqali shaxsiy manfaatdorlik yoki ijtimoiy qo‘rquv natijasida insoniy burchni unutish, vijdonsizlik kabi salbiy illatlarni fosh etadi. Otaning o‘z farzandi tomonidan sotilishi voqeasi asarning dramatik izchilligini oshirib, oilaviy tizimning parchalanishi shaxsiy va ijtimoiy fojialarga sabab bo‘lishini asoslab beradi.

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmad ushbu syujet orqali oilaviy munosabatlarning etnik asosi buzilishi shaxsiy degradatsiya va ma’naviy tanazzulga olib kelishini deterministik tarzda yoritib bergan.

O‘tkir Hoshimov asarlarida esa oilaviy munosabatlar tasviriga ko‘proq ijtimoiy va psixologik ziddiyatlar nuqtayi nazaridan yondashiladi. O‘z asarlarida oila a’zolarining psixologik holatlari, bir-biriga nisbatan qarashlari va shaxsiy o‘sishlari haqida hikoya qiladi. U oilaviy munosabatlarda yuzaga kelgan muammolarni ko‘rsatish orqali, oilaning rivojlanish jarayonida qanday ruhiy salohiyatga ega bo‘lishi va bir-birini tushunishi zarurligini ta’kidlaydi. Adib asarlarida oilaning ichki ziddiyatlari va ularning hal etilish jarayoni alohida o‘rin tutadi. Masalan, “Nimadir bo‘ldi” hikoyasidagi Nozima va Fayzulla obrazlarida oilada erkak kishining o‘rni yo‘qligi, uyi, mashinasi hamma narsasi xotinniki bo‘lganidan erkak o‘z so‘ziga, hukmiga ega emasligini ko‘ramiz.

“ – Ketdikmi? – dedi Fayzulla orqada o‘tirgan xotiniga qarab. – Qayoqqa yuramiz?

– Yigirma sakkizinchiga, – qisqagina javob qildi hamon burchakka suyanib o‘tirgan Nozima…

Nozimaning keskin, ingichka tovushi uning xayolini to‘zitib yubordi.

O‘chiring anavi savilning ovozini! Nima balo, qulog‘ingiz karmi!

… Fayzulla shosha-pisha radioni o‘chirdi. Chehrasida horg‘in, ma’yus ifoda paydo bo‘ldi”[3].

Parchada oilaviy munosabatlar masalasi, xususan, er-xotin orasidagi noxushlik va bir-birini qadrlamaslik muammosi yoritilgan. Nozima obrazi orqali yozuvchi oilada mehr va hurmatning yo‘qolishi qanday ruhiy iztiroblar keltirib chiqarishini ko‘rsatadi. Fayzullaning faqat jabrlanuvchi emas, balki manfaat uchun yashovchi inson sifatida tasvirlanishi yozuvchining oila psixologiyasi haqidagi chuqur kuzatishlari natijasidir. Bu bilan muallif oila faqat moddiyatga emas, balki mehr va hurmatga tayanishi kerak. Aks holda, na erkak, na ayol baxtli bo‘la oladi demoqchi.

Said Ahmad va O‘tkir Hoshimov prozasida oila instituti murakkab ijtimoiy-psixologik tizim sifatida tadqiq etiladi. Mualliflar oilaning ichki dinamikasi, personajlarning individual-ruhiy holatlari hamda ular o‘rtasidagi intersubyektiv bog‘liqliklarni badiiy tahlil obyekti darajasiga ko‘tarishgan. Adiblarning hikoyalarida ishonch, affektiv aloqalar va oilaviy qarorlar qabul qilish jarayoni psixologik determinizm nuqtayi nazaridan yoritilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Said Ahmad va O‘tkir Hoshimov hikoyalarida oila inson kamolotini belgilovchi muhim ijtimoiy institut sifatida talqin etiladi. Adiblar oilaviy munosabatlarni tasvirlash orqali shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, ruhiy holati va ijtimoiy pozitsiyasini ochib berishga erishganlar. Said Ahmad asarlarida ota-ona va farzand o‘rtasidagi ishonch, sadoqat va ma’naviy mas’uliyat masalalari markaziy o‘rin egallasa, O‘tkir Hoshimov hikoyalarida er-xotin munosabatlari, oiladagi psixologik muvozanat va o‘zaro hurmat muammolari chuqur badiiy tahlil qilinadi.

Har ikki adib oiladagi ziddiyatlarning kelib chiqish sabablarini individual xarakter, ijtimoiy muhit va ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq holda yoritadi. Ularning hikoyalarida oila nafaqat maishiy makon, balki shaxs ruhiyati shakllanadigan va axloqiy mezonlar sinovdan o‘tadigan muhim ijtimoiy-psixologik muhit sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, Said Ahmad va O‘tkir Hoshimov ijodi o‘zbek adabiyotida oila psixologiyasini badiiy tadqiq etishning muhim namunasi hisoblanadi hamda milliy oilaviy qadriyatlarning badiiy-estetik ifodasini o‘rganishda ilmiy manba vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аҳмад С. Умрим баёни. – Тошкент: Шарк, 2008. – Б. 48.
2. Fitrat. Oila. –Toshkent: Ma’naviyat, 1998. –112 b.
3. Hoshimov O‘. Urushning so‘nggi qurboni. – Toshkent: Ziyo, 2019. – B 63-64.
4. Karimova V. Oila psixologiyasi. – Toshkent, 2004. – 157 b.
5. Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur. – Toshkent, 2000.
6. Владимирова Н.В. 60-йиллар ўзбек ҳикоянавислигида услубий изланишлар: Китобда:Ўзбек адабиѐтида жанрлар типологияси ва услуб рангбаранглиги. –Тошкент: Фан, 1983.